

This is not registered version of TotalDoc Converter.  
Olgan asming qo'shimchasi. Olgan asming qo'shimchasi qo'mitalari ikkiga: sanoat va qishloq xo'jalik partiya qo'mitalariga, bo'lingan edi.

Viloyatning nufuzli idorasiga boshini durra bilan bog'lab olgan ayol kelibdi. Eshikbonlar undan kelishining maqsadini so'rashipti.

- Obko'mga arzim bor, - depti ayol.

- Qaysi obko'mga?

- Obko'mga-da!

- Hozir ikkita obko'm bor: qishloq xo'jalik obko'mi, sanoat obko'mi. Arzingiz qaysi biriga?

Ayol javob berolmay hayron bo'libdi.

- Nima masalada kelgansiz?

- Erim urdi. Shundan shikoyat qilib keldim. Qaysi obko'mlaringga kirishim kerak.

Endi eshikbonlar ham o'ylanib qolishibdi.

- Eringiz nima bilan urdi?- so'rabdi ulardan biri.

- Sholi o'rgani ketib yarim kechasi shirakayf bo'lib keluvdi, "o'sha yoqda tunab qolavermabsiz-da" desam, "E-e", dediyu o'roqni irg'itib yubordi. Shunda...

- Demak, o'roq bilan ekan-da, - debdi eshikbon tanga topgan kalday iljayib. - U holda qishloq xo'jalik obko'miga kirarkansiz, opa... Mabodo, bolg'a bilan urganda sanoat obko'miga kirardingiz.